

# Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi

## 2018 – YIL QURILISH PUDRAT ISHLARI YANVAR- SENTYABR OYLARIDA

Joriy yilning yanvar – sentyabr oyida viloyat bo'yicha 2 394,8 mlrd. so'mlik qurilish pudrat ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,3 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 410,7 mlrd.so'mni yoki jami qurilish ishlari xajmining 17,2 % foizni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 89,4 % ni tashkil qildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari xajmining 51,1 %i yoki 1223,4 mlrd. so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,3 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 31,8 % ni yoki 760,6 mlrd.so'm to'g'ri keldi, hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ni tashkil etdi. Ko'pgina tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining o'sishi kuzatildi. Shu jumladan, Chiroqchi tumanida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 170,5 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 108,1 foizni, Shahrisabz shahrida - 82,6 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 104,8 foizni, G'uzor tumanida -120,0 mlrd.so'm, o'sish sur'ati 104,5 foizni, mos ravishda, Qamashi tumanida – 51,8 mlrd.so'mni yoki 103,5 foizni tashkil etdi.


### **Raqamlar:**

**Qurilish-montaj ishlari hajmi – 2 394,8 mlrd.so'm**

**Yirik qurilish-pudrat tashkilotlari ulushi – 17,2 %**

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi – 51,1 %**

**Qurilishda norasmiy sektorning ulushi – 31,7 %**




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 79,6 %ni tashkil etdi.

	<b>JAMI</b> (mlrd.so'm)	<b>Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha</b>			<b>Jami qurilish xajmidan</b>
		Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari	Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnikaviy qayta qurollantirish
<b>Viloyat bo'yicha jami:</b>	<b>2394,8</b>	<i>1905,7</i>	<i>172,1</i>	<i>317,0</i>	<i>1739,1</i>
<b>Nodavlat :</b>	<b>2333,8</b>	<i>1905,7</i>	<i>134,5</i>	<i>293,6</i>	<i>1712,3</i>
<b>Davlat:</b>	<b>61,0</b>	-	<i>37,6</i>	<i>23,4</i>	<i>26,8</i>

Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi jami qurilish ishlari hajmida 7,2 %ni, hamda ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda 13,2 %ni tashkil qildi.



**Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati**  
**2018 yil yanvar-sentyabr uchun**



**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
quyidagicha ifodalanadi**

		<i>shu jumladan:</i>
--	--	----------------------

	<i>Jami</i>		<i>Hududiy qurilish pudrat tashkilotlari</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>2394,8</b>	<b>102,3</b>	<b>143,1</b>	<b>65,9</b>
tumanlar:				
G'uzor t	120,0	104,5		
Dehqonobod t	77,3	100,8		
Qamashi t	51,8	103,5		
Qarshi t	217,9	103,1	3,4	3,1 m
Koson t	302,2	102,8	5,2	105,5
Kitob t	181,8	102,2		
Mirishkor t	72,0	100,6		
Muborak t	127,9	100,7	23,8	47,9
Nishon t	62,0	100,4	4,4	96,9
Kasbi t	97,5	100,3	3,4	2,9 m
Chiroqchi t	170,5	108,1		
Shahrisabz t	119,0	100,1		
Yakkabog' t	124,1	100,8	5,5	2,4 m
Qarshi sh	588,2	101,4	68,6	67,9
Shahrisabz sh	82,6	104,8	28,8	




## Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2333,8 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 97,4 foizini tashkil qildi. Shu jumladan mulkchilikning davlat

shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 61,0 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 2,6 foizini tashkil qildi.

## Mulkchilik shakllari (foizda)



Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi  
Aloqa telefoni: (0375) 221-32-47